



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

LAMIACEA OILA VAKILLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li,

FarDU, Zootexniya fakulteti talabasi.

Rahmonova Ozoda Mansurbek qizi

FarDU, Zootexniya fakulteti talabasi.

Xursanova Durdonaxon Adhamjon qizi

FarDU, Zootexniya fakulteti talabasi.

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda. O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o'simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Bugun sohaga e'tiborning ortishi hamda mavjud imkoniyatlardan foydalanish natijasida respublikada 100 dan ortiq turdagi dorivor o'simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning asosiy qismi tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, dori-darmon, muxallis bargli xapri, lakusman ayugasi, changituvchi bozulbang, tikanli qo'ziquloq, boshqoqli lavanda, ko'p yillik o't, chala buta, efir moyi.

Inson va hayvon organizmida ro'y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar salmoqli o'rin tutadi. Juda ko'pchilik dorivor o'simliklar dorixonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xom ashyo manbai hisoblanadi. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10–12ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40–47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. Dori-darmon xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar tarkibida uglevodlar,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

organik kislotalar, polisaxaridlardan kraxmal, oqsil, moy va moy kislotalar, efir moylari, alkaloid, tanid, saponin, glyukozid, achchiq moddalar, fitonsidlar, mikroelementlar, vitaminlari, mineral tuzlar, va boshqa moddalar bo'ladi. Ana shu moddalarning kompleks tasiri sababli o'simliklar dori-darmonlik xususiyatiga ega.

Muxallis bargli xapri (*Perovskia Scrophulariifolia* Bge.) labguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 60-120 sm ga yetadigan kuchli xidli va zaharli yarim buta. O'rta Osiyoning tog'li hududlarida o'sadi. Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi bor. Efir moyi kamfen, sineol, borneol, linalool va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi xalq orasida qo'tir va boshqa Teri kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismining surmasi va damlamasidan tayyorlangan surtmasi bakterisid tasirga hamda yaralarni davolash xossasiga ega ekanligi tajribada aniqlangan va shu maqsadda ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan.

Laksman ayugasi (*Ajuga Laxmannii* L. Benth) labguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 30 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlikdir. Ukraina va Shimoliy Kavkazning cho'l va o'rmon cho'llarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi bor. Xalq tabobatida yer ustki qismining damlamasi, qaynatmasi bezgak, rak va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Gangituvchi bozulbang (*Lagochilus Inebrians* Bge) labguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 30-40 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlikdir. O'zbekiston, Turkmaniston va qisman Tojikistonning ayrim viloyatlaridagi adirlar va shag'alli tog' bag'irlarida o'sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi-guli va bargi ishlatiladi. Gul va bargi tarkibida staxidrin, lagoxilin, efir moyi, vitamin C va K, karotin, organik kislotalar, flavonoidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi. Dori preparatlari qon ivishini tezlatish va qon bosimni pasaytirish tasiriga ega bo'lgani uchun bachadon, o'pka, burun yaralardan va boshqa joylardan qon oqishini to'xtatish hamda, bavoil, 1-2 darajali gipertoniya kasalligini davolash uchun ishlatiladi.

Tikanli qo'ziquloq (*Phlomis Pungens* Willd) labguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 40-150 sm ga yetadigan ko'p yillik o't. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, vitamin E va K, glikozidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

Boshqoli lavanda (*Lavandula Spica* (L.) D.C.) labguldoshlar oilasiga mansub, bo'yi 30-60 sm ga yetadigan yarim kurra shakilli doim yashil yarim buta. Tibbiyotda gullaridan olingan efir moyi ishlatiladi. Guli tarkibida efir moyi bo'lib, u linalool va uning murakkab efirlari, geraniol va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Efir moyli linementlar surtma dorilar va kuygan joylarni davolashda



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

ishlatiladigan "Lavian" aerezoli tarkibiga kiradi, 1% li spirtli eritmasi antiseptik vosita sifatida qo'llaniladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda biz dori-darmonlardan foydalanayotganimizda, ko'pincha ularni shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotganini hayolimizga ham keltirmaymiz. Masalan: kardiovalen- yurak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan sifatli dorilardan bo'lib, u do'landa, asarun, sariqgul, va boshqa bir qancha o'simlik turlaridan tayyorlanadigan murakkab birikmadir. Yurak kasalliklarini davolashda foydalaniladigan dorilarning 77%, jigar va oshqozon-ichak yo'llarida uchraydigan kasalliklarni davolaydigan dorilarning 74%, bachadon kasalliklarga qarshi ishlatiladigan dorilarning 80% shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangandir. O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dori vositalarining 38-40% ini dorivor o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Mahsulotlar asosan yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan yig'iladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.X.X.Xolmatov, A.I.Qosimov Ruscha-Lotinch-O'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati, Toshkent-1992.
- 2.Q.X.Xaydarov, Q.X.Xojimatov O'zbekiston o'simliklari, Toshkent-1992.
- 3.O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yo'lchiyeva, D.Mustafakulov Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi.